

ASOSSIZ ORTTIRILGAN BOYLIKNI QAYTARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ikramov Abrorbek Kamolidinovich

*Sudyalar Oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi
tadqiqotchisi*

ОСОБЕННОСТИ ВОЗВРАТА НЕОБОСНОВАННО ПРИОБРЕТЕННОГО ИМУЩЕСТВА

Икрамов Аброрбек Камолитдинович

*Исследователь Высшей школы судей при Высшем судебном
совете*

THE DISTINCTIVE FEATURES OF RECOVERING UNJUSTLY ACQUIRED PROPERTY

Ikramov Abrorbek Kamolidinovich

*Researcher at the Higher School of Judges under the Supreme
Judicial Council*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda asossiz orttirilgan boylikni qaytarishni o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganiladi. Tadqiqotda asossiz orttirilgan boylikni milliy qonunchilikdagi ahamiyati, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish muammasi va o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: asossiz orttirilgan boylik, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish, majburiyat, da’vo.

Аннотация: В данном исследовании изучается гражданско-правовой метод возврата необоснованно приобретенного имущества. Рассматривается значение необоснованно приобретенного имущества в национальном законодательстве, а также его возврат как способ гражданско-правовой защиты.

Ключевые слова: необоснованно приобретенное имущество, возврат необоснованно приобретенного имущества, обязательство, иск.

Annotation: This study examines the civil-law method of recovering unjustly acquired property. It explores the significance of unjustly acquired property in national legislation and its recovery as a means of civil-law protection.

Key words: unjustly acquired property, recovery of unjustly acquired property, obligation, claim.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Insoniyat tarixining dastlabki davrlaridayoq o‘zgaga tegishli narsani asossiz qo‘lga kiritish yoki ushlab qolish og‘ir gunohlardan biri sifatida qarab kelingan.

Qadimgi Rim huquqi boshqa huquq manbalari va huquqiy tizimlar hamda odat huquqlaridan farqli ravishda birinchilardan bo‘lib, majburiyatlarni shartnomali va shartnomadan tashqari turlarga



e-mail:

ikramovjustice87@gmail.com

Tel: +998949088025

Orcid: 0009-0001-6103-1164

bo'lish bilan birga, shartnomadan tashqari majburiyatlarni zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga va asossiz bo'yluk orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Asossiz orttirilgan bo'yluk natijasida muayyan shaxslar oldida asossiz bo'yluk orttirgan shaxsning majburiyat yuzaga kelishi mumkin. Ushbu majburiyat mol-mulkni topshirish, ma'lum bir ishni bajarish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatni amalga oshirishga majbur bo'ladi Masalan, bir shaxsning nomida plastik kartochka bor va ushbu plastik kartochkaga anglashmovchilik natijasida bank tomonidan ma'lum bir miqdorda pul mablag'i tushib qolishi natijasida plastik kartochkasiga anglashmovchilik natijasida pul mablag'i tushishi asossiz orttirilgan bo'yluk hisoblanadi. Ushbu holatda bank tomonidan asossiz orttirilgan bo'ylukni qaytarish haqida ariza bilan sudga murojaat qilish huquqi mavjud bo'ladi. Mazkur masala huquqshunos tadqiqotchilar tomonidan hanuzgacha yetarli darajada o'rganilmagan bo'lib, ko'plab ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi. Shu sababli ham mazkur mavzu bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zR FK 234-moddasining 1-qismida «majburiyat» tushunchasi keltirilgan. Majburiyat muayyan fuqarolik-huquqiy munosabatdan iborat bo'lib, uning amal qilishi orqali bir shaxs (qarzdor) ikkinchi shaxs (kreditor) foydasiga ma'lum bir xatti-harakatni bajarishi shart: mol-mulkni topshirishi, ishni bajarishi, xizmat ko'rsatishi, pul to'lashi va sh.k., yoki biron harakatni bajarishdan tiyilishi zarur, kreditor esa qarzdordan o'z majburiyatini bajarishni talab etishga haqlidir. Ko'rinib turibdiki, yuqorida aytilgan majburiyat tushunchasiga muvofiq u qarzdorning harakatni bajarish (harakatdan tiyilish) majburiyatidan va kreditorning talab qilish huquqidan iborat oddiy bir sxemada tasvirlab berildi. Amalda esa majburiyatli huquqiy munosabatlar ko'pincha murakkab mexanizmdan iborat bo'ladi, zero taraflarning har qaysisi ham bir vaqtning o'zida qarzdor va kreditor sifatida namoyon bo'ladi. Qarzdor o'z zimmasiga bir vaqtning o'zida muayyan harakatni bajarish va ma'lum bir boshqa harakatdan tiyilish majburiyatini olishi mumkin. Fuqaroning hayoti, sog'lig'i, jismoniy yoki yuridik shaxsning mol-mulkiga

yetkazilgan zarar natijasida vujudga kelgan majburiyat bu zararni ziyon ko'rganga to'liq hajmda, shu jumladan, boy berilgan foydani qo'shgan holda qoplab berish va qonunda nazarda tutilgan holatlarda yetkazilgan ma'naviy zarar uchun ham tovon to'lash shartligida ifodalanadi (O'zR FK, 985-m. O'zR FK, 1021-m.). O'zR FKda bevosita ko'rsatib o'tilgan yoki uning moddalari ma'nosidan kelib chiqadigan majburiyatlarni vujudga keltiruvchi boshqa asoslar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: – bir taraflama bitimlar, bunda majburiyat tomonlarning birining erki irodasi orqali kelib chiqadi (masalan, O'zR FKning 981-m.da ko'rsatilgan ommaviy e'lon qilingan mukofotni to'lash majburiyati); 586 III bo'lim. **MAJBURIYAT HUQUQI** – asossiz orttirilgan bo'yluk, bunda boshqa shaxsning hisobidan mol-mulkni qonunda yoki bitim shartlarida belgilab qo'yilgan asoslarsiz egallab olgan yoki tejab qolgan shaxsning majburiyati anglashiladi. Bunday asosda vujudga kelgan majburiyatning mohiyati shundaki, bunda jabrlanuvchiga ana shunday mol-mulk qaytarilishi shart (O'zR FK, 1023-m.) O'zR FKda ko'rsatilgan, ammo amalda kam uchraydigan majburiyat predmetlaridan biri sifatida, masalan, topilmani aytib o'tish mumkin, bunda topilmani olishga haqli bo'lgan shaxsga uni qaytarib bergan shaxs ashyoni saqlash, topshirish yoki sotish bilan bog'liq harajatlarni, shuningdek, ashyoni olishga haqli bo'lgan shaxsni qidirishga ketgan harajatlarning to'lanishini talab qilishga haqli bo'ladi. Qarovsiz mollarni tutib olishdan kelib chiqadigan majburiyat bo'yicha ham ana shunday hayvonni tutib olgan shaxs, shuningdek, hayvonni saqlash va foydalanish uchun topshirilgan shaxs uni lozim darajada saqlashlari shart va hayvonlar nobud bo'lishi yoki shikastlanishi uchun hayvonning narxi darajasida javobgar bo'ladilar (qar.O'zR FKning 195-m.ga sharh). Majburiyatning vujudga kelishi uchun fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilashga qaratilgan sud qarori alohida asos bo'lishi mumkin [2].

O'zbekiston Respublikasining amaldagi FKsi 1023-1030-moddalari «Asossiz bo'yluk orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar» bilan bog'liq fuqarolik munosabatlarini tartibga solishga bag'ishlangan. FKning 1023-moddasi asossiz orttirilgan bo'ylukni olgan shaxsga bo'ylukni (mulk qiymatini) jabrlanuvchiga qaytarib berishi majburiyatini yuklaydi. Ushbu talab asossiz bo'yluk orttirish uni qo'lga kirituvchi tomonidan, bo'yluk

orttirish jabrlanuvchi, uchinchi shaxslar xulq-atvori natijasi bo'lganligi yoki ularning irodasidan tashqari sodir bo'lganligidan qat'i nazar boylikni egasiga qaytarishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga fuqarolik qonunchiligida asossiz orttirilgan boylik qanday hollarda uning egasiga qaytarilmasligi mumkinligi ham belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi FKning 1030-moddasi talabiga ko'ra quyidagi holatlar asossiz orttirilgan boyliklar uning egasiga qaytarilmaydi:

ijro etish muddati to'lgunga qadar majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mol-mulk, agar majburiyatda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa;

da'vo muddati o'tganidan keyin majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mol-mulk;

ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, hayot yoki sog'liqqa yetkazilgan zarar to'voni, alimentlar va fuqaroga turmush kechirish vositasi sifatida berilgan boshqa pul mablag'lari, uning tomonidan vijdotsizlik qilinmaganda va hisob-kitobda xatolar bo'lmaganda;

mavjud bo'lmagan majburiyatni bajarish uchun berilgan pul summalari va boshqa mol-mulk, agar qo'lga kirituvchi mol-mulkni qaytarishni talab qilayotgan shaxsning majburiyat yo'qligini bilganligini yoxud mol-mulkni xayriya maqsadlarida berganligini isbotlasa [3].

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O'zR FKda fuqarolik huquqlarini himoyalashning iqtisodiy va sud amaliyotida eng ko'p uchraydigan 11 usuli keltirilgan. Ammo ushbu ro'yxatni uzil-kesil deb atab bo'lmaydi. Fuqarolik huquqini qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ham himoyalashga yo'l qo'yiladi. Bir paytning o'zida fuqarolik huquqlarini himoyalashning bir necha usulini qo'llash istisno qilinmaydi. Favqulodda holatlarda, qonunchilik talablari yuzasidan yoki buzilgan (da'vo qilingan) huquqning xususiyatidan kelib chiqib, u faqat muayyan usul bilan himoya qilinishi lozim. Fuqarolik huquqlarini himoyalashning usullari, mazkur usullarni amalga oshirish mexanizmiga bog'liq ravishda bo'linishi mumkin.

O'zbekiston qonunchiligida esa asossiz orttirilgan boylikni qaytarishga nisbatan yondashuv

bevosita milliy qonunchilikda belgilangan qoidalar va shu asosda shakllangan doktrinaga bog'liq. Zero, FKda asossiz orttirilgan boylikka oid qoidalar bir qadar umumiy shakllantirilgan va fuqarolik huquqidagi boshqa talablar bilan bog'liq holda ular bilan birga qo'llanilishi haqidagi qoidalarni nazarda tutadi. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston qonunchiligidagi asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning mustaqilligi va alohidaligini shubha ostiga qo'yadi. Chunki FKda belgilangan qoidalar, xususan uning 1024-moddasi kodiksiyaviy da'voning subsidiar tusini ko'rsatadi. FKning mazkur moddasini sharhlar ekan, O.Oqyulov haqli ravishda quyidagilarni ta'kidlaydi: "agarda mulkiy huquqni himoya qilishga boshqa asoslarni – qonunni, bitimni, zarar yetkazish bo'yicha majburiyatlarni qo'llab da'vo bildirish orqali erishilmasa, u asossiz boyish bo'yicha majburiyat asosida qayta tiklash mumkin. Shunday qilib, asossiz boyish haqidagi normalarni qo'llash subsidiar xarakterga ega" [4].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shunday qilib, huquqiy nuqtai nazardan, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish fuqarolik huquqiy himoya qilish usuli va vositasi sifatida shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hisoblanishi bilan katta ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham u alohida qayd etilgan bo'lib, o'zining huquqiy maqomiga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild. X. R. Raxmonqulov, O. O. Oqyulov. – Toshkent: Fan, 2010. – 258 b.
2. A.Alimov. Asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga nisbatan yondashuvlar tahlili // Jamiyat va innovatsiyalar. – 11 (2023) / ISSN 2181-1415, Toshkent, 2023 – b. 27.
3. Bohodir Isroilov. Asossiz boylik orttirish deganda nima tushuniladi? // Yangi tahrirdagi Fuqarolik kodeksi loyihasiga munosabat. 01.06.2020 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi.